



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 6-dekabr, shanba,
139 (24.169)-son

O'zbek xalq
maqoli

Soʻz
oyoqdan
ilgari
borar

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Zarafshon



4-dekabr kuni viloyat hokimi Adiz Boboyevning navbatdagi sayyor qabuli boʻlib oʻtdi. Qabulda viloyat prokuraturasi, ichki ishlar, soliq va boshqa mutasaddi boshqarmalar, tashkilotlar mas'ullari, shahar va tumanlar hokimlari ham ishtirok etishdi. Bu esa fuqarolarga o'zlarini qiynayotgan masalalar yuzasidan nafaqat viloyat hokimi, balki sohalar mas'ullariga ham murojaat qilib, muammolariga yechim topish imkonini berdi.

Jumladan, Samarqand shahar Imom Vose mahallasida yashovchi Malikxon Ibrohimov mahalla hududidagi suv quvurlari va yo'lni ta'mirlashda hokimdan yordam so'radi. Viloyat hokimi mas'ullarga holatni joyida borib o'rganib, murojaatni



Temiryo'l ko'p yillik orzumiz edi

Ko'p yillardan buyon tadbirkorlik bilan shug'ullanaman. Lekin 2010-2015 yillarda bizga eksportni bajarasan degan talab qo'yilardi. Vaholanki, eksport uchun qo'shni davlatlar bilan chegaralar deyarli yopiq, olis hududlarga mahsulotni sotish o'sha paytda yuqori samara bermasdi.



Keyingi yillarda davlatimiz rahbari-ning tashabbusi bilan qo'shni davlatlar bilan chegara masalasida muammo qolmadi. Bu bilan biz tadbirkorlarning mahsulot eksport qilishimiz uchun to'siqlar ham yechildi. Hozir chegaralar ochilgach, eksport hajmi ham o'z-o'zidan oshib ketdi.

Davlatimiz rahbari 2021-yilda viloyatimizga tashrif buyurganlarida bizning korxonamizga kelib ish faoliyatimiz bilan tanishib, zarur topshiriqlar bergandilar. Shu topshiriqlar asosida elektrotexnika sohasini rivojlantirish fondidan kredit oldik va natijada uchinchi korxonamizni ham bitkazdik. Tashrif davomida Prezidentimiz men-ga korxonamizni elektrotexnika XAB-

Iga aylantirish bo'yicha topshiriq bergandilar. Joriy yil 25-noyabr kungi tashrif davomida o'sha topshiriqlarning natijalari, ishlab chiqarish jarayoni, eksport imkoniyatlarimiz haqida ma'lumot berdim. Eng ahamiyatlisi, Prezidentimiz tashrifig'i bilan Urgutga tarixdagi birinchi marta temiryo'l bordi. Bu - tadbirkorlar uchun juda katta imkoniyat bo'ldi. Negaki temiryo'lning kirib kelishi mahsulot tannarxini tushirishda katta rol o'ynaydi. Xomashyoni korxonagacha olib kelish, logistika masalasi, ish o'rinlarini yaratishda qulayliklar yaratiladi. Misol uchun, avval mahsulot eksport qilishda korxonadan yuk mashinasiga, undan poezdga yuklash kerak edi. Bu o'z navbatida mahsulot sifati, qadog'iga zarar yetkazadi, qolaversa vaqt yo'qotiladi. Endi barcha jarayon korxonaning o'zida bajariladi. Kelgusida temiryo'lni Sariatqepa mas-sivigacha yetkazish rejalashtirilgan.

Sohib AZIMOV, Urgut tumanidagi "Samelektroservis" MCHJ ta'sischisi, "Ideal" brendi asoschisi.

Sayyor qabulda 500 dan ortiq murojaat qayd etildi

ijobiy hal etishni buyurdi.

Qabulda bir nechta jamoaviy murojaatlar quruvchilarning noqonuniy xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'ldi. Ko'p holatlarda uylar o'z vaqtida qurilib, foydalanishga topshirilmayotgani, ishlar sifatsiz bajarilgani, ayrim quruvchilar esa aholi bilan shartnoma qilib, dastlabki to'lovlarni qabul qilgan bo'lsa-da, hali qurilishni boshlamagani aytiladi. Mazkur murojaatlarning har biri ko'rib chiqilib, huquqiy baho berish uchun prokuratura organlariga yo'naltirildi.

Nurobod tumanidan kelgan murojaatchi qishlog'idagi yo'llarni ta'mirlash ishlari haqida viloyat hokimiga ma'lumot berar ekan, 7 kilometr yo'l ta'mirlangan, lekin yana 15 kilometr yo'lda ishlar chala qolib ketganligini aytib, yordam so'radi.

Viloyat hokimi ushbu masalani o'z nazoratiga olishini bildirib, mutasaddi tashkilotlarga tegishli topshiriqlarni berdi.

Sayyor qabul davomida elektr energiyasi, gaz, ichimlik suvi, yo'llar, oilaviy nizolar, bandlik, moliyaviy yordam va boshqa masalalar bilan bog'liq murojaatlar ham ko'rib chiqildi.

Ertalab soat 9 da boshlangan qabul kech soat 17 ga qadar davom etdi va 500 dan ortiq murojaat qayd etildi. Har bir murojaat bo'yicha mas'ullar tayinlanib, ularni hal etish mud-datlari belgilandi. Huquqni muhofaza qilish organlari vakolatiga kiradigan murojaatlar tegishli organlarga yo'llandi.

Viloyat hokimligi axborot xizmati.

**ESHITISH, KO'RISH KERAK,
LEKIN GAZETA O'QISHNING
ZAVQI BOSHQACHA!**

"Zarafshon" va "Samarqandskiy
vestnik" gazetalariga

2026-YIL UCHUN

OBUNA

davom etmoqda.



Obunani
tahririyat yoki elektron
to'lov tizimlari orqali
ham rasmiylashtirishingiz
mumkin!

TELEFONLAR:
(66) 233-91-51,
(66) 233-91-56



Elektrechilar Nurobodda bog' yaratmoqda

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida keng ko'lamda amalga oshirilayotgan ishlar aholining faolligi va hamijhatligini ko'rsatmoqda. Mazkur loyiha doirasida viloyatimizda ham ko'chat ekish va ko'kalamzorlashtirish ishlari izchil olib borilmoqda.

"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali xodimlari ushbu ezgu tashabbusda faol ishtirok etib, Nurobod tumani hududidan o'tuvchi A-378 avtomobil yo'li yoqasida 1500 tup manzarali daraxt ko'chatlari ekdi.

- Asosiy maqsadimiz - dasht va yo'l yoqalarida yashil maydonlarni kengaytirish, ekologik muhitni yaxshilash va barqaror ekologik muvozanatni ta'minlashdan iborat, - deydi Nurobod tuman elektr ta'minoti korxonasi boshlig'i Hamid Kenjayev. - Daraxt ko'chatlarini ekish bilan birga yil bo'yi parvarish ham qilamiz.

Loyiha doirasida nurobodlik elektrechilar tomonidan hozirgacha 500 tup, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Samarqand hududiy filiali hamda "Energosavdo" viloyat bo'linmasi tomonidan 2200 tup manzarali daraxt ko'chatlari ekilib, zamonaviy sug'orish tizimlari yordamida sug'orilmoqda.

Dilmurod TO'XTAYEV.



Samarqanddan Nyu-Yorkka

to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnov rejalashtirilyapti

Samarqand shahrida turizm sohasida yashirin iqtisodiyotning oldini olish, sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatish, mavsumga bog'lanmagan holda sayyohlarni jalb qilish masalalari muhokama qilindi.

Prokuratura, soliq, bojxona, elektr tarmoqlari, gaz idoralari, turizm boshqarmasi mas'ullari, tadbirkorlar, tur-firmalar vakillari va boshqa mas'ullar ishtirok etgan tadbirida viloyat hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov joriy yilda turizm sohasida erishilgan natijalar va kelgusi yilga mo'ljallangan rejalarda haqida ma'lumot berdi. Qayd etilishicha, joriy yilda viloyatga 3 milliondan ortiq sayyoh kelgan va keyingi yilda bu ko'rsatkichni kamida ikki barobar oshirish imkoniyati bor. Sohadagi yangiliklardan yana biri kelgusida "Samarqand - Nyu-York" to'g'ridan-to'g'ri aviareysi qo'yilishi rejalashtirilmogda.

Tadbirida turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliqdan qochish va ishchilar sonini kamaytirib ko'rsatish holatlari ko'pligi o'qayd etildi.

- Viloyatimizda mehmonxona va turizm xizmatlari faoliyati bo'yicha jami 615 ta tadbirkorlik subyekti mavjud, - deydi viloyat soliq boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari Akmal Valiyev. - Mehmonxona 24/7 rejimda, resepsion, oshpaz, farrosh, qorovul kamida 2-3 navbatda ishlaydi. Lekin hisobotlarda bor-yo'g'i 1-3 ta odam rasmiy ishchi sifatida ko'rsatilgan. 17 ta mehmonxonada umuman xodimlar soni qayd etilmagan.

Yana bir og'riqli masala - turoperatorlar, gidlar va transport faoliyati bo'lib qolmoqda. Bu yerda vaziyat sal boshqacharoq, lekin nomuvofiqliklar bor.

Sayyohlardan "Tur paket" uchun olingan to'lovlarning hammasi ham rasmiy hisobotlarda o'z aksini topmayapti. Mehmonxona, oshxona, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar direksiyalari va transport korxonalari yoki egalari bilan shartnomalar tuzilmagan yoki nomigagina tuzilgan rasmiy shartnomalar ham yo'q emas.

Gidlar rasman tadbirkor yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tmagan.

Transport xizmatlarini ko'rsatishda ham

"soya"dagi aylanma juda katta. Xususiy avtobuslar, mikroavtobuslar, komfort tipdagi yengil avtomashinalar xizmatda yuribdi, katta oqimdagi turistlar tashiliyapti, lekin bundan tushgan daromad soliq bazasida aks etmayapti.

Viloyatda 202 ta tadbirkorlik subyekti umumiy ovqatlanish sohasi faoliyati bilan shug'ullanadi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, olingan daromadlarni soliq hisobotlarida yashirib ko'rsatish holatlari mavjud.

Samarqand shahrida faoliyat ko'rsatayotgan umumiy ovqatlanish korxona (restoran)larining bir kunlik savdo tushumi kamida 30-40 million so'mdan kam emasligi barchamizga ma'lum. Biroq umumiy ovqatlanish korxonalari kunlik savdo tushumini to'liq ko'rsatmayapti.

Chakana savdo faoliyati bilan shug'ullana yotgan 2223 ta tadbirkorlik subyekti-da ham shunday holatni kuzatish mumkin. Vaholanki, Samarqand shahrida chakana savdo nuqtalarida bir kunlik savdo tushumining eng kam miqdori 1-3 million so'mdan kam emas.

Uchrashuvda tadbirkorlar ham sohadagi muammolarni bildirishdi.

- Xorijiy tur firmalar bizga sayohatchi yuborgani uchun komissiya xarajati to'laymiz, biroq ular bir necha yildan buyon QQS vaji bilan 20 foiz qo'shimcha ustama undiryapti, - deydi "Optimist" mehmonxonasi mulkdori Iskandar Saydaliyev. - E'tiroz bildirganimizda bizning hukumatimiz bilan kelishilganini bildirishadi. Lekin bunday kelishuv yo'q. Hisoblab ko'ring, 6 mingta mehmonxona oyiga 100 dollardan to'lasa qancha bo'ladi, yiliga qancha mablag' bo'ladi?

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2026-yildan oilaviy mehmon uylariga belgilangan 4 foizlik o'rniga 1 foizlik soliq stavkasi qo'llaniladigan bo'ldi. Bu tadbirkorlar uchun juda yaxshi rag'bat bo'ldi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).



Huquq va erkinliklar kafolati

o'z navbatida burchlarimiz majmui ham

Hisoblab ko'rdim, O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida ta'lim so'zi 20 marta qo'llanilgan. Xususan, 44-moddada "... Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi", deb belgilangan.



Albatta, mavzu yuzasidan Asosiy qonun-ning 50-moddasini chetlab o'tishning iloji yo'q. Zero, "har kim ta'lim olish huquqiga ega"ligi belgilangan ushbu moddada ta'lim bilan bog'liq deyarli barcha jihatlar qamrab olingan. Misol uchun, "davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi, deb belgilangan tizimdagi keyingi islohotlarni ham anglash imkonini beradi.

Bundan tashqari, "Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi, umumiy o'rta ta'lim majburiyligi belgilangan.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy

o'rta ta'lim davlat nazoratida. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi.

Qolaversa, davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishiga ko'maklashadi.

Biz odatda Konstitutsiyani huquqlarimiz va erkinligimiz kafolati sifatida bilamiz. Bu rost, ammo u o'z navbatida majburiyat ham yuklashini ko'pincha unutib qo'yamiz. Masalan, ot-onalar va ularning o'rini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi ... xususida g'amxo'rlik qilishga majbur.

Yetim bolalar hamda ota-onasining va-siyiligidan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalash (albatta, boqishni ham) davlat va jamiyat ta'minlashi Asosiy qonunimizda mustahkamlangan.

Bosh qomusimiz moddalarini to'g'ri-dan-to'g'ri amalda qo'llash mumkin. Shu bois, unda belgilangan tamoyillarni puxta o'rganib olish hayotda qoqilmaslik kafolati bo'lishi shubhasiz.

Abduqodir HASANOV,
Nurobod tuman 1-son
politexnikumi direktori o'rinbosari.

Mamlakatimiz 1991-yil 30-dekabr kuni inson huquqlari sohasidagi birlamchi xalqaro standart sifatida e'tirof etiladigan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga qo'shilgan. Bu bilan O'zbekiston yangi mustaqil davlat sifatida inson huquqlari va erkinliklariga, mazkur yo'nalishdagi xalqaro majburiyatlariga sodiq, insonparvar davlat qurishni maqsad qilganini keng xalqaro hamjamiyatga e'lon qilgandi.

Oradan bir yil o'tib, mazkur g'oyalari, mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli a'zosi sifatida xalqaro huquqning ustuvorligi prinsipini konstitutsiyaviy normalarda mustahkamladi.

Nafaqat fuqarolar va davlat o'rtasidagi, balki xalqaro munosabatlarning asosiy yo'nalishlarini tartibga soluvchi hujjat hisoblanuvchi Bosh qomusimizda tashqi siyosatning asoslari va ustuvor yo'nalishlari, davlat organlarining xalqaro munosabatlar sohasidagi vakolatlari, qonunchilikning xalqaro huquq normalari bilan o'zaro munosabatlari belgilab qo'yilgan. Ya'ni, agar qonun hujjatining normalari shu sohada O'zbekiston qo'shilgan xalqaro shartnomalari-ga zid kelib qolsa, bunday hollarda xalqaro shartnoma normalari ustuvor bo'lishi va u yuridik kuchga ega bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, xalqaro huquqiy normalarning ustuvorligi 2019-yil 6-fevral kuni qabul qilingan "Xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi qonunda ham aniq bayon qilingan.

Bugungi kunda O'zbekiston 165 davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan bo'lib, 200 dan ortiq xalqaro shartnomalar a'zosi, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini qamrab oluvchi xalqaro hujjatlarga qo'shilgan.

Ular orasida inson huquqlari bo'yicha BMTning 6 ta asosiy shartnomasi va ularga qo'shimcha protokollar, YUNESKO, Xalqaro mehnat tashkilotining xalqaro konvensiyalari, YXHTning "Insoniylik mezonlari" hujjatlari, shuningdek, Islom Hamkorlik Tashkiloti, MDH kabi mintaqaviy tashkilotlarning hujjatlari milliy qonunchiligimizni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi olti yilda mamlakatimizda inson huquqlari sohasidagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini xalqaro-huquqiy normalar asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

XALQARO HUQUQNING UMUME'TIROF ETILGAN NORMALARI VA XALQARO HAMJAMIYAT E'TIROFI

Jumladan, Xotin-qizlarni kamsitishning barcha turlariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning implementatsiyasi sifatida 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlarni misol keltirish mumkin.

2023-yilda qabul qilingan, O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatga ochiqligi va global tamoyillarga sodiqligining yorqin ifodasi bo'lmish yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda Yevropa, Osiyo, Sharq va Amerika mintaqalarida joylashgan dunyo davlatlarining ijobiy konstitutsiyaviy tajribasi o'z aksini topgan bo'lib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan me'yorlari chuqur integratsiya qilingan. Undagi normalar zamonaviy demokratik davlatlar amaliyotiga mos ekanligi, xalqaro majburiyatlarini bajarish hamda jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan prinsiplarga amal qilish masalalari alohida o'rin tutganligi xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanmoqda.

Xususan, inson huquqlari sohasidagi xalqaro reytinglarga to'xtaladigan bo'lsak, so'nggi yillarda O'zbekiston "Freedom House", "World Justice Project", BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi kabi nufuzli institutlar reytinglarida ijobiy o'zgarishlarga erishdi. Majburiy mehnat va bolalar mehnatini tugatish bo'yicha xalqaro miqyosda yuqori baho olindi. Sud-huquq islohotlari xalqaro ekspertlar tomonidan "rivojlanayotgan demokratik institutlar" sifatida e'tirof etilmog'ida. Bu kabi natijalarning asosida yangi Konstitutsiyadagi xalqaro huquq normalarining mustahkam o'rin tutganligi turibdi albatta.

O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida insonning 90 dan ortiq huquqlari aks etgan bo'lib, bu ko'rsatkichdan ko'rinib turibdiki dunyodagi 110 dan ortiq inson huquqlarining katta qismi qamrab olingan. Ya'ni, bu Konstitutsiya tom ma'noda, o'zbekona "Inson huquqlari to'g'risidagi bill"ga aylandi, deysingha barcha asoslar bor.

Negaki, bosh qomusimizga inson huquqlari va erkinliklari masalasida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga mos keluvchi keng ko'lamli normalar kiritilgan. Xususan, Konstitutsiyamiz BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi pakt inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarining deyarli barcha prinsiplar qoidalarini o'zida aks ettirgan.

Bu esa mamlakatimizda xalqaro huquqning asosiy prinsiplari — **pakt sunt servanda** (shartnomalarga rioya qilish), davlatlar o'rtasidagi tenglik va suverenitet, chegaralarga hurmat kabi qoidalar konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlanganligining yaqqol tasdiq'idir.

Yana bir e'tirofqa molik jihat, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga davlat siyosatining ochiqligi va pragmatizmini ta'minlovchi, xalqaro huquqning shaffoflik, hisobdorlik, inson huquqlariga hurmat, ijtimoiy adolat kabi ahamiyaatli prinsiplariga to'laqonli mos keladigan - xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, global iqtisodiy integratsiya va xalqaro xavfsizlik masalalariga oid bir qator normalar kiritildi.

Natijada, sud mustaqilligi kafolatlari ken-

gaytirildi, parlament vakolatlari, mahalliy boshqaruvning demokratik tamoyillari kuchaytirildi.

Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari Konstitutsiyamizning asosiy prinsiplaridan biri etib belgilangan "Tashqi siyosat" bobida o'ziga xos tarzda sanab o'tilgan. Xususan, 17-moddada O'zbekiston tashqi siyosatida eng ustuvor bo'lgan xalqaro huquqning 6 ta prinsipi keltirilgan. Ya'ni, mazkur moddada "O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsip va normalariga asoslanadi", deb belgilangan.

Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 18-moddasida: O'zbekistonning davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirishi, davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkinligi belgilangan. Ushbu norma o'z mohiyati nuqtai nazaridan, garchand 17-moddada sanab o'tilgan prinsiplar qatorida bo'lmasa ham **"davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro hamkorlik"** prinsipini ifodalaydi.

"Inson huquqlarini hurmat qilish" prinsipini 17-moddada keltirilmagan bo'lsa-da, Konstitutsiyaning "Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" nomli ikkinchi bo'limidagi 40 ta modda ushbu masalaga bag'ishlangan. Bu moddalar mazmunidan shuni tushunish mumkinki, O'zbekiston nafaqat ichki siyosatida, balki tashqi siyosatida ham inson huquqlarini hurmat qilish prinsipiga qat'iy amal qiladi.

Qayd etilish joizki, shunga o'xshash normalar Konstitutsiya yangi tahrirda qabul qilinishidan oldin ham milliy qonunchilik normalarida mavjud edi. Biroq yuqoridagi normaning Konstitutsiya darajasida belgilanishi xalqaro huquq normalarining ahamiyatini belgilashi bilan birga, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga ham xuddi shunday maqom berdi.

Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga ko'maklashish barchamizning burchimiz, asosiy vazifalarimizdan biri esa xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda takomillashtirish borayotgan inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid qonunchilik qoidalariga og'ishmay amal qilmoqlikdir.

Hulkar ABDULLAYEVA,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi.

Inson omili kamaysa KORRUPSIYA yo'l qolmaydi

Viloyatimizda davlat xizmatlarini shaffof, tezkor va sifatli ko'rsatish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, aholining davlat idoralariga bo'lgan ishonchini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda boshqarmamiz faoliyatida raqamlashtirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'plab xizmatlar elektron ko'rinishga o'tkazilgani byurokratik to'siqlarni qisqartirish, inson omili bilan bog'liq ehtimoliy xatolarni kamaytirish, eng asosiysi, korruptsiyaga nisbatan munosasiqlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Har bir murojaatning elektron tizimda qayd etilishi natijasida ularning bajarilish muddati, kim tomonidan ko'rib chiqilgani hamda natijasi to'liq nazoratda bo'lib, fuqarolar ham bu jarayonning shaffofligini his qilmoqda.

Korruptsiyaga qarshi samarali kurashning eng muhim tamoyillaridan biri davlat idoralari o'rtasidagi hamkorlikdir. Shu maqsadda boshqarmamiz adliya organlari, huquqni muhofaza qilish tuzilmalari, tuman va shahar hokimliklari bilan yaqindan ishlamoqda. Qonunchilikdagi yangiliklar, nazorat mexanizmlari, profilaktik choralar bo'yicha muntazam seminar va o'quv mashg'ulotlari o'tkazilmoqda. Bu esa xodimlarning huquqiy bilimini oshirib, har qanday noqonuniy holatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tartibi ochiq va shaffof. Har bir ariza va shikoyat elektron reestrda kiritilib, murojaatchiga natija bo'yicha aniq javob taqdim etilmoqda.

Muntazam ravishda tashkil etilayotgan huquqiy targ'ibot va tushuntirish ishlari korruptsiyaga qarshi kurashishning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Tadbirkorlar, yoshlar, mahalla faollari bilan uchrashuvlarda korruptsiya oqibatlari, uning huquqiy javobgarligi, shuningdek, qonuniy yo'l bilan biznes yuritishning afzalliklari tushuntirilmoqda. Bu tadbirlarning amaliy natijalari ham yo'q emas: bir qator murojaatlar joyida hal qilindi, tadbirkorlar duch kelgan qiyinchiliklar bartaraf etildi, investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratildi.

Keyingi yillarda viloyatimizda ayrim xizmat turlari to'liq elektronlashtirildi, investitsiya loyihalarini ko'rib chiqish tartibi sodalashtirildi, tadbirkorlik faoliyatini boshlashda talab qilinadigan hujjatlar soni kamaytirildi. Murojaatlar bo'yicha javoblar muddati qisqartirildi, inson omilini kamaytirish orqali xolislik sezilarli darajada oshdi. Bu natijalar korruptsiyaning oldini olishda tizimli yondashuvning nechog'li muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Sheroz SABIROV,
viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari.



9-dekabr – Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish kuni



52,3 milliard so'mlik kredit talon-tarojliklari bo'yicha 114 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan

9-dekabr – Xalqaro korruptsiyaga qarshi kurash kuni sifatida belgilangan. Sana munosabati bilan "Biznesni rivojlantirish banki" ATB viloyat hududiy boshqarmasida "Aksilkorruptsiya oyligi" doirasida ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.



Tadbirida qayd etilishicha, viloyat prokuraturasi tomonidan "Bank va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun ijrosi yuzasidan 26 ta tekshirishlar o'tkazilib, 28 ta hujjatga protest keltirilgan, 10 ta taqdimnoma kiritilgan. Taqdimnomalar muhokamasiga ko'ra, 113 nafar bank xodimi intizomiy, 6 nafari ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Xususan, 99 nafar mansabdor shaxs ogohlantirilib, 52 milliard 350 million so'mlik kredit mablag'larining talon-tarojliklari bo'yicha 114 ta jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Jinoyat ishlari bo'yicha tergov davomida 17 nafar bank mansabdor shaxslari va 97 nafar qarzidor jinoiy javobgarlikka tortilgan.

- Joriy yil 5-martda Prezidentimiz

tomonidan korruptsiyaga qarshi kurash bo'yicha Samarqand tajribasini yo'lga qo'yish, sohalarni raqamlashtirish orqali maishiy korruptsiyaga barham berish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi, - deydi viloyat prokuraturasi bo'lim prokurori Jafar Sharopov. - Shunga asosan o'tgan davrda viloyat prokuraturasi hududiy kengash bilan hamkorlikda davlat organlarida korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida "Yo'l xarita"si ishlab chiqildi. Korruptsiyaviy omillarni tahlil qilish uchun shtab tashkil etilib, 88 ta idora va tashkilotlarga prokuratura xodimlari birkiritildi. Har oyning 1-5-sanalarida korruptsiyaga qarshi kurash tadbirlarini tashkil etishga

qaratilgan mexanizm ishlab chiqilib, nazorat tadbirlarini o'tkazish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, har oyda bitta sohada korruptsion holatlarni o'rganish bo'yicha reja-jadval ishlab chiqilib, natijasi hududiy kengashda muhokama qilib kelinmoqda.

Bundan tashqari, viloyatdagi davlat tashkilotlarida ishlovchi 6500 dan ortiq davlat xizmatchisi korruptsiyaga qarshi kurash virtual akademiyasida malaka oshirib, sertifikat oldi. Hududiy kengash qarori bilan 23 ta yo'nalishdan iborat indikator ko'rsatkichlari tasdiqlanib, har chorakda davlat organlari va tashkilotlarida korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini reyting baholash tizimi joriy etildi. Ayniqsa, maishiy korruptsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, ularning taklif va tashabbuslaridan foydalanib "Yo'l xarita"si imzolandi. Chuqur tahlillar va ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqib, davlat boshqaruvida inson omilini kamaytirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ishlari yanada jadallashtirilmoqda.

Bank xodimlari va mijozlar ishtirok etgan tadbirida korruptsiyaning ayanchli oqibatlari, uning jamiyatga salbiy ta'sirlari to'g'risida ma'lumotlar berildi.

- "Biznesni rivojlantirish banki"

viloyat hududiy boshqarmasida korruptsiyaga qarshi kurash oyligi doirasida "Ochiq eshiklar kuni" tadbiri o'tkazilmoqda, - deydi "Biznesni rivojlantirish banki" kompleans nazorat departamenti menejeri Dilshod Samiyev. - Bunda bankimizda tashkil qilingan kompleans nazorat departamenti tomonidan korruptsiyaga qarshi kurash sohasida amalga oshirilgan ishlar haqida jamoatchilikka axborot berildi. Bankda korruptsiyaning oldini olish uchun mijozlar kredit olish jarayonida kreditlarni bankning rasmiy veb-sayti orqali elektron tartibda rasmiylashtirish hamda mijozlar bankka kelganda ularni identifikatsiya qilish maqsadida yuz tanish tizimi yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, bankda aynan korruptsion holatlar haqida ma'lumot qabul qiluvchi aloqa kanallari tashkil qilingan. Jamoatchilikka ushbu aloqa kanallari 24/7 rejimida ishlab turganligi haqida ma'lumot berildi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Bugun aholining kambag'al qatlamlarini kamaytirish hisobiga ularning mehnat sharoitlarini oshirish, daromad manbaini ko'paytirish va ular uchun yangi ish joylarini yaratishga muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Ushbu masala nafaqat mamlakatimiz, balki jahon amaliyotida ham muhim muammolardan hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo aholisining 16 foizi (1,3 milliard nafari) bugungi kunda to'yib ovqatlanish imkoniyatiga ega emas.

Shu bois ham yurtimizda davlat rahbari tashabbusi bilan alohida strategiya asosida kambag'allikni tugatish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2030-yilga borib respublikamizda 4,5 millionga yaqin kambag'allik chegarasida turgan fuqarolarni kambag'allikdan chiqarish belgilangan.

Mazkur yo'nalishdagi sa'y-harakatlar natijasida mehnatga layoqatli aholi o'rtasida ishsizlik darajasi 2020-yildagi

Kambag'allik yiliga 6 foizgacha qisqaryapti

10,5 foizdan 2024-yilga kelib 6,8 foizga tushdi. Kambag'allik darajasi 2021-yilda 17 foiz bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 11 foizni tashkil etdi.

Joriy yilning olti oyi yakunlariga ko'ra, kambag'allikni qisqartirish tizimi bo'yicha 113 ming nafar ishsiz fuqaro o'qitilib, kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan bir yarim barobarga oshganini ko'rish mumkin. Shuningdek, kambag'allik darajasidagi o'n ming nafar fuqaro yangi kasblarga jalb etilib, xorijiy tillarga o'qitilib, ular uchun xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida ish topish imkoniyati yaratildi.

Ayniqsa, mahallalarda aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, aholi bandligini ta'minlashda xizmatlar sohasini rivojlantirishga alohida ahami-

yat qaratilyapti. Avvalo, xonadonlar, gularlar kesimida kambag'allik mezonlari darajasida bo'lgan fuqarolar aniqlanib, ular uchun yangi xizmat ko'rsatish sohasida ish joylari tashkil etilyapti. Qolaversa, fuqarolarning kambag'allik darajasiga tushishining iqtisodiy sabablari o'rganilyapti. Ishlash imkoniyatiga ega bo'lmagan, oilasi uchun zarur daromadni topa olmayotgan fuqarolar uchun qo'shimcha xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida o'quvlar tashkil etilib, ularni ish bilan ta'minlash choralari ko'rilyapti. Ehtiyojmand fuqarolar va ularning oilasiga mahalla darajasida amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda.

Bu esa aholining daromadi oshishiga, joylarda xizmatlar sohasi rivojiga xizmat qilmoqda.

Qulmamat MIRZAYEV,
SamISI raqamli iqtisodiyot kafedrasini mudiri.

Raqamli platformalar qo'shimcha qarzdorlik hisoblagn



Fuqaro N.Avazova boshqarmaga murojaat qilib "Alif" raqamli platforma xizmat ko'rsatish kompaniyasidan muddatli to'lovga muzlatkich sotib olib, to'lovlarni vaqtida amalga oshirgan bo'lsa-da, qo'shimcha qarzdorlik hisoblanganligidan noroziligini ma'lum qildi.

Mazkur holat bo'yicha hududiy boshqarma xodimlari tomonidan olib borilgan o'rganishlar natijasida fuqaro N.Avazovaning murojaatida ko'rsatilgan vaj "Alif" raqamli platforma xizmat ko'rsatish kompaniyasi tomonidan to'liq bartaraf qilinishi ta'minlandi.

O'nga yaqin fuqaroning "Alif" raqamli platforma xizmatlarini ko'rsatish operatorlari faoliyatidan norozi bo'lib yo'llagan murojaati hududiy boshqarma xodimlari tomonidan o'rganilib, iste'molchilar huquqlari tiklandi.

Zafar VOXIDOV,
Raqobat qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi.

Бўрон ГАДОЕВ

Вилотимизнинг фахрли инсонларидан бири, Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси Бўрон Гадов 100 ёшида вафот этди.

Б.Гадов 1925 йилда Ургут туманида туғилган. 1943 йил 18 ёшида урушга сафарбар этилди. Фронтида қонли жангларда жасорат кўрсатди. Литва, Латвия, Польша, Шарқий Пруссияни фашистлардан озод қилишда иштирок этди. 7-Белоруссия фронти қўшинларида хизмат қилиб, 91-инженерлик бўлими бошлиғи сифатида жонбозлик кўрсатди. Урушдаги хизматлари учун "Жасорат" медали, бир қатор орденлар билан тақдирланган.

1945 йил Шарқий Пруссияда мина портлаши оқибатида бошидан жароҳатланиб,

1946 йил июль ойида Ватанга қайтди.

Урушдан сўнг тумандаги 6-мактабда география фани ўқитувчиси, кейинчалик директорнинг ўқув ишлари бўйича ўринбосари, маънавий ишлар бўйича ўринбосар, мактаб директори вазибаларида меҳнат қилиб, таълим ривожини учун ҳисса қўшди.

Б.Гадов пенсияга чиққандан кейин ҳам жамоат ишларига бош-қош бўлди. Тинчлик, жасорат, ҳалоллик ва меҳнатсеварлик тимсоли сифатида ёшларга ўрнак бўлди. Давлатимиз томонидан уруш фахрийларига кўрсатилган ҳурмат-эътибордан баҳраманд яшайди.

Турмуш ўртоғи Каромат ая билан беш нафар фарзанд тарбиялади, 21 набира, 66



эвара, уч нафар чевара ардоғида ҳаёт кечирди.

"Меҳнат фахрийси" кўрак нишони соҳиби, бугунги тинч-осойишта кунларимиз учун заҳмат чеккан мардлик намунаси Бўрон Гадовнинг номи ва жасорати халқимиз хотирасида яшайди.

"Нуроний" жамғармаси
вилоят бўлими,
Ургут тумани
ҳокимлиги.

Моҳира НАЗАРОВА

Бешафқат ўлими меҳрибон она, ташкилотчи раҳбар, "Нуроний" жамғармаси фаоли Моҳира Назаровани орамиздан олиб кетди.


М.Назарова 1950 йил 22 сентябрда Самарқанд туманининг Мотрид қишлоғида туғилган. 1967 йилда ўрта мактабни битириб, Самарқанд давлат университетининг чет тиллар факультетида таҳсил олган.

Иш фаолиятини 1968 йилда дорихона бoshқармасида дори тақсимловчи сифатида бошлаб, сўнг 1974-1991 йилларда шаҳар автобус базасида режаштириш бўлимининг бошлиғи, 1991-1997 йилларда шаҳар автожамлан-

маси директори, шаҳар обodonлаштириш бўлими бошлиғи лавозимларида меҳнат қилган.

Шунингдек, турли йилларда халқаро "Экосан" жамғармаси шаҳар бўлими раиси, шаҳар кўкаламзорлаштириш бўлими бошлиғи, "Нуроний" жамғармаси Сиб бўлими раҳбари вазибаларида фаолият кўрсатган. Жамоат ишларида фаол бўлиши баробарида фикрларини, туйғуларини шеър шаклида битиб, "Нафосат", "Биби Хадича", "Ватан", "Гулзорда", "Қизил олма", "Сунбула", "Якка ёлғиз ўзинг" каби китобларини нашр эттирди.

Турмуш ўртоғи Сайфиддин Имомов билан икки нафар



фарзандни тарбиялаб, набираларни камолга етказди.

Самимий дўст, гўзал фазилатлар соҳиби Моҳира Назарованинг хотираси яқинлари, дўстлари қалбида қолажак.

БИР ГУРУХ ДЎСТЛАРИ.

РЕКЛАМА, E'LOMLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASINING SAMARQAND VILOYATI KENGASHI



viloyatimiz ahlini

Bosh qomusimiz

qabul qilinganligining

33 yilligi

bilan tabriklaydi!

Xonadoningizga tinchlik, osoyishtalik va qut—baraka tilaydi!



DA'VOLAR BO'LSA!

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Davronov Abror Asrorovichga (2025-yil 21-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Razikov Axtam Xodjiyevichga (2020-yil 22-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatilayevna notarial idorasida marhum Azimova Xurbuviga (2025-yil 20-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatilayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Mailyan Gladya Shamirovnaga (2025-yil 14-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Axadov Xamidga (2020-yil 13-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Yakubov Erkin Musurmonovichga (2024-yil 9-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning

Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Djalilova Rano Raimovna (2025-yil 1-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

Urgut tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hoshimov G'olib Baxtiyorovich notarial idorasida marhum Sattarov Mavlana Gadayevichga (2025-yil 18-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hoshimov G'olib Baxtiyorovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Urgut tumani Mergancha massivi, Amir Temur ko'chasi, 65-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Mardiyev Akbar Mamirovichga (2023-yil 15-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

BEKOR QILINADI!

Payariq tumanidagi «SADAF BIZNES SERVIS» mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 303207996) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi «WORLD STAR 777» mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 306433643) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand viloyati hokimligi jamoasi Ishtixon tumani hokimi Fazliddin Ro'ziyevga onasi **Saodat RO'ZIYEVANING** vafoti munosabati bilan hamdardlik bildiradi.

«Zarafshon» va «Самаркандский вестник» gazetalari tahririyati jamoasi tahririyatning sobiq xodimi **Lutfullo SULTONOVNING** vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiradi.

ИЛМУ АМАЛИДАН ҚАДР ТОПГАН ОЛИМ

Профессор
Облоқул Қувондиқовнинг
илмий меросига назар

Таълим-тарбия, илм-фан, маърифат соҳаларига бағишланган симпозиум, конференция ва юбилей тадбирларида дунёда тан олинган олимۇ ёзувчилар, таниқли давлат ва жамоат арбобларининг ҳаёт ва меҳнат фаолияти тўғрисидаги суҳбатларда машҳур ўзбек физик олимлари қаторида Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети профессори Облоқул Қувондиқовни ҳам алоҳида эътироф этишларининг гувоҳи бўламиз.

Дарҳақиқат, Облоқул Қувондиқов магнетизм соҳасидаги ўта нозик ва долзарб илмий тадқиқотлари билан ўтган асрнинг етмишинчи йилларидаёқ жаҳон илмий жамоатчилигининг эътиборига тушган фан даргаларидан ҳисобланади.

1965-1975 йилларда собиқ Иттифокнинг нуфузли илм-фан марказларида аспиран-тураларда ўқиб, физиканинг турли соҳала-рида мукаммал билим эгаллади. СамДУга қайтиб, илмий лабораториялар ташкил этган Леонард Собиров, Негмат Низомов, Облоқул Қувондиқов, Баҳром Маҳмудов, Максуд Мўминов, Толиб Мўминов каби ёш олимлар яратган илмий-иждодий муҳит физика фани ва таълимининг жозибадорлигини шу дара-жада оширди.

Облоқул Қувондиқов илмий фаолияти-нинг дастлабки кунларидан бошлаб, ўзи-нинг атрофида илмга қизиқувчан ва аъло баҳоларга ўқийтган иқтидорли талабалар-ни тўплади ва уларни Россиянинг етакчи илмий марказларида ўқишини ташкил этди (М.В.Ломоносов номидаги Москва давлат университети, Россия Фанлар академияси Сибир бўлими Физика институти, Урал ил-мий-тадқиқот институти ва бошқалар).

Ўз даврининг илғор ва фидойи олими СамДУ ректори, академик Акбар Отахўжа-ев Облоқул Қувондиқовдаги илмга бўлган ташналик, меҳнатсеварлик, тиришқоқлик, инсонпарварлик хислатларини инобатга олган ҳолда дастлаб Марказий Осиёда ягона бўлган “Электромagnetизм муаммолари” илмий лабораториясининг ташкил этилиш-ига, кейинчалик эса “Умумий физика ва магнетизм” кафедраси очилишига раҳнамо-лик қилди.

Облоқул Қувондиқов илмий лаборато-рияни ташкил этиш билангина қаноатланиб қолмади. Ўзининг устози Е.И.Кондорский бошчилигида Москва давлат университети олимлари, Урал илмий марказида фаоли-ят юритган магнетизм соҳасида жаҳонга машҳур С.В.Вонсовский илмий мактаби, академиклар М.Баҳодирхонов, К.Муқимов-лар билан ҳам узвий ҳамкорликни йўлга қўйди. Домла университетда қизгин илмий ва педагогик фаолиятини физика таълими ва фанини мамлакатимизнинг барча ҳудуд-ларида тарғиб қилиш, иқтидорли ёшларни шу соҳага жалб қилиш мақсадида Са-марқанд, Сурхондарё, Қашқадарё, Навоий, Жиззах вилоятларидаги таълим муассаса-ларида ўтказилган конференция ва учра-шувларда фаол ташвиқот ишларини олиб борди. Бу учрашувларда биринчи устозлари Мусо Мўминов ва факультетда тахсил олиб, академик даражасигача йўлни босиб ўтган 10 дан ортққ олимларнинг ҳаёти ва илмий фаолияти тўғрисида ёшларга сабоқ бўлади-ган фикр-мулоҳазалари билан ўртоқлашиб келмоқда.

Академик М.С.Баҳодирхонов магнетизм соҳасида маъруза қилар экан, 2007 йилда гигант магнит қаршиликни кашф этиб, фи-зика соҳасида Нобель мукофотига сазовор бўлган Альберт Ферт ва Петер Грюнбергинг илмий тадқиқотлари тўғрисида гапириб, агар ўша даврларда Облоқул Қувондиқов-нинг лабораторияси фарб мамлакатлари олимларининг лабораториялари каби замонавий жиҳозланганида бу киши ҳам ана шундай нуфузли мукофотларга лойиқ ишларни амалга оширган бўлар эди, деб таъкидлаган.

Бугунги кунда Самарқанд давлат универ-

Ёнимиздаги одамлар



Жамият тинчлиги, фуқаролар осоийшталигини таъминлаш ҳар қандай давлатнинг энг муқаддас вазифаларидан бири. Бу улкан масъулият синовли, дахлсизликни талаб этувчи хизмат бўлиб, уни ҳар ким уддалай олмайди. Ана шундай қийин ва шарафли йўлни танлаган, фидойиликни ҳаётий шиорга айлантирган ИИБ ходимларидан ИИБ Жамшид Раҳимов 1950 йилда Самарқанд тумани Мотрид қўргонида туғилган.

У ўрта мактабни муваффақият-ли тамомлаб, 1967 йил Самарқанд давлат университетининг меха-ника-математика факультети-га ўқишга кирди. Олийгоҳни ту-гатгач, илк меҳнат фаолиятини

Фидойилик ва жасорат тимсоли

Самарқанд шаҳридаги 27-мактабда ўқувчиларга математика фанидан дарс бериш билан бошлади.

Унда ҳуқуқ-тартибот органла-рида фаолият кўрсатиш иштиёқи пайдо бўлиб, 1975 йилда ички ишлар идорасига ишга қабул қилинди.

Дастлаб Самарқанд шаҳар Темир йўл тумани ички ишлар бўлими вояга етмаганлар билан ишлаш нозири вазифасига тай-инланди. Ҳаракатчанлиги ва ўз устида тинимсиз изланиши билан раҳбариятнинг эътиборига туш-ди, ҳамкасбларининг ҳурматини қозонди. Ёшлар билан ишлаш, ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш, аҳоли ўртасида тарғибот ва тушунтириш ишларини олиб боришда бошқаларга ибрат бўлди.

Берилган вазифаларни сид-қидилдан бажариши ва бошқа сифатларини инобатга олган тизим мутасаддилари Ж.Раҳимовни жиноятчиликка қарши курашувчи инспекторликка ўтказишди.

Албатта, жиноят қидирув бўлими фаолияти вояга етмаган-

лар билан ишлашдан тубдан фарқ қилади. Бу вазифада фақат билим ва фаолликнинг ўзигина етарли эмас. Аммо Ж.Раҳимов янги ва-зифада ҳам ўзини ҳар томонлама муносиб кўрсатди ва жамоатчилик осоийшталигини таъмилашда яхши натижаларга эришди.

Тун-кун демая хизмат қилиш, хавфли вазиятларда тўғри қарор қабул қила олиш, инсонлар тақди-рига бефарқ бўлмаслик — булар-нинг барчаси унинг ҳаёт мезонига айланди. Бир неча маротаба хавф-ли ҳолатларда тезкорлик билан ҳаракат қилиб, инсонларнинг ҳаёти ва мулкни сақлаб қолди. Баъзан бу ҳаракатлар жамоатчи-ликка кўринмаслиги мумкин. Аммо бундай хизматлар ортида жасорат ва масъулият туради.

Ўз вазифасини сидқидилдан бажаришдаги қатъийлиги учун Ж.Раҳимов бир неча марта фахрий ёрлик ва кўкрак нишонлари билан тақдирланди.

1992 йилда мустақил Ўзбе-кистоннинг Божхона қўмитаси ташкил этилди. Тизимга фидойи ва фаол ходимлар ўта зарур бўлгани



боис Ж.Раҳимовни вилоят божхона бошқармаси бўлим бошлиғи вазифасига ишга олишди.

Аслида Ж.Раҳимовнинг фао-лияти фақат қонуний тартибни таъминлаш билан чекланиб қол-мади. Чунки у ҳар бир фуқаронинг дардига кулоқ тутди, ёрдамга муҳтожларга қўл узатди, тинчлик ва осоийшталиқни куч билан эмас, балки инсоний мулоқот орқали таъминлаш мумкинлигини исбот-лади.

Шунинг учун ҳам 75 ёшни қаршилаган Жамшид Раҳимовни нафақат ҳамкасблари, балки Са-марқанд шахри Азизон маҳалласи аъзолари ҳам ҳурмат қилади.

Суръат РАҲИМОВ, истеъфодаги подполковник.

Bosh qomusimizda arxiv faoliyatining huquqiy asoslari mavjud

Har bir davlatning barqaror rivojlanishi, tarixiy merosining asrab-avaylanishi va fuqarolarning axborot olish huquqini ta'minlashda arxivlar muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bu sohadagi munosabatlar uchun ham huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Arxiv tizimi nafaqat hujjatlarni saqlash, balki davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyotining ajralmas bo'g'inidir.

Konstitutsiyamizning 33-moddasi-da har bir fuqaroning axborot izlash, olish va tarqatish huquqi kafolatlangan. Ushbu norma arxivlarda saqlanayot-gan ochiq ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini huquqiy jihatdan mustah-kamlaydi. 34-modda esa davlat organ-larining fuqarolarga zarur axborotni taqdim etish majburiyatini belgilaydi. Bu arxivlarda mavjud bo'lgan ochiq hujjat-lar bo'yicha fuqarolar so'rovlariga o'z vaqtida va asosli javob berilishini ham anglatadi.

61-moddaga ko'ra, madaniy merosni asrash davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Arxiv hujjatlari esa ushbu meros-ning muhim bo'lagi hisoblanadi. Tarixiy hujjatlarning saqlanishi kelajak avlod-lar uchun bebaho ilmiy, ma'naviy va madaniy manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitut-siyasi arxiv tizimining faoliyati, huquqiy asoslari va rivojlanish mexanizmlarini belgilab berar ekan, jamiyat taraqqi-yotida arxivlarning o'rni yanada ortib boraveradi.

F. ULUG'OV, viloyat davlat arxivi yetakchi arxivchisi.



Amir Temur maqbarasida qanday eksponatlar saqlanadi?

Amir Temur maqbarasi tarix, ilm va san'at uyg'unlashgan buyuk meros maskani bo'lib, obidaga keluvchilar Sohibqironning hayoti, temuriylarning davlat boshqaruvi, me'moriy merosi, o'sha davr madaniyat va san'atidan bahramand bo'ladi. So'nggi yillarda ziyoratgohda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, restavratsiya jarayonlari hamda xalqaro hamkorlik natijasida maqbara ekspozitsiyasi yanada boyitildi.

Sohibqiron tobutining qoplama matosidan topilgan parchalar

XV asrga oid ushbu mato bo'lak-lari oltin va kumush iplar bilan to'qil-gan bo'lib, tarixiy dafn marosimlari an'analari o'rganishda juda muhim manba hisoblanadi. Matoning har bir bo'lagi maxsus sharoitda saqlanib, restavratsiya qilingan holda namoyishi etilmoqda. Mato bilan birgalikda maq-barada Sohibqironning "Qabr ochilishi haqidagi" akt hujjatlarining nusxasi va fotosuratlari mavjud.

Ikki tabaqali o'ymakor yog'och eshik va marmar panel fragmenti

Ekspozitsiyaga chiqarilgan qayra-g'ochdan yasalgan, fil suyagi va turli daraxtlar bilan inkrustatsiya qilingan bu eshik temuriylar davridagi o'ymakorlik san'atining yorqin namunasi sifati-da qadrlanadi. Shuningdek, epigrafik naqshli marmar panel fragmenti Qur'on oyatlari va bezakli yozuvlar bilan ziynat-langan bo'lib, temuriylar davri xattotlik va naqsh san'atining nozik uslublarini ochib beradi.

Ko'ksaroydan topilgan ustun tagligi va bo'lagi

XIV-XV asrlarga oid mazkur me'moriy detallar Amir Temur davridagi saroy me'morchiligining qiyofasini tiklashda muhim o'rin tutgan bo'lib, ziyoratchi-larga Sohibqiron bunyod etgan yirik inshootlarning tarixiy ko'rinishini jonli tasavvur qilish imkonini yaratadi.

Amir Temur jasadi olib kelingan yog'och tobut

Archa yog'ochidan ishlangan ushbu tobut tarixiy ahamiyati bilan alohida e'ti-borga ega. Amir Temur qabri 1941-yilda ochilganida tobut qabrdan olinadi va restavratsiya qilinib, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasiga topshiriladi va uzoq muddat muzeyda saqlanadi. Hozir-da tobut Amir Temur maqbarasiga olib kelinib, maxsus himoya tizimi bilan jihoz-landi va zamonaviy vitrinaga o'rnatildi.

Shuningdek, maqbaraga tarixiy qo'lyoz-ma va nashrlar namunasi ham olib kelin-gan. Jumladan, XIII asrga tegishli Mirzo Rumiyning "Temurnoma" qo'lyozmasi, Ibn Arabshohning "Ajoyib al-Maqdur fi Tarixi Temur" (1868), Sieur de Saintcyon'ning "Histoire du Grand Tamerlan" (1678), A.V.Shchyusev tomonidan chizilgan "Gur Amir" (1905) albomidan sahifa ko'rgazma-da namoyish qilinmoqda. Bu namobalar orqali Sohibqiron shaxsiyati, siyosiy faoli-yati va jahon tarixidagi o'rni-ga oid ma'lu-motlar ilmiy asosda yoritilib, jamoatchilikka yetkaziladi.

Maqbaraga tashrif buyuruvchilar bu yerda nafaqat temuriylar davrining beba-ho tarixiy merosi bilan tanishadilar, balki xalqimiz o'tmishidagi eng yorqin sahifalar-ni qalban his qiladilar. Yangidan tashkil etilgan vitrinalar, zamonaviy interfaol taqdimotlar va eksponatlar har bir meh-mon uchun mazmunli xotiralarni qoldiradi.

Davlat KAMOLIDDINOV, Amir Temur maqbarasi gid-tushuntiruvchisi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

8-DEKABR

Javohir SINDAROV - 2005-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Shaxmatning rapid, blits va standart yo'nalishlari bo'yicha jahon chempioni. 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasi g'olibi. "O'zbekiston iftixori", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi" unvonlari sohibi. 2025 yilda

10-DEKABR

Tal'at BOBOMURODOV – 1936-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist.

Hindistonda bo'lib o'tgan shaxmat bo'yicha Jahon kubogi g'olibi.



МУАССИС: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 928 nusxada chop etildi. Buyurtma 567. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazetaning navbatdagi soni 2025-yil 10-dekabr, chorshanba kuni chop etiladi.

Navbatchi muharrir:
G'.HASANOV.

Navbatchi:
X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:
B.ABDULLAYEV.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahilalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi:
soat 19:00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda